



## WORDS DENOTING ACTION IN THE LANGUAGE OF QAZI MAWLIK'S WORKS

Orinbaeva Jupargul

Independent researcher of Berdakh Karakalpak State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17098849>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> September 2025

Accepted: 10<sup>th</sup> September 2025

Online: 11<sup>th</sup> September 2025

### KEYWORDS

Linguistics, Old Turkic language, verb, affix, auxiliary verbs, participle, gerund, nominalized verb, imperative-optative mood, conditional mood, desiderative mood, indicative mood.

### ABSTRACT

*This article discusses the linguistic features of Qazi Mawlik's works, particularly focusing on the grammatical forms of verbs. The usage of verbs in the poet's works is analyzed through examples, highlighting their semantic and grammatical functions.*

## QAZI MAWLIK ASARLARI TILIDA HARAKATNI BILDIRUVCHI SO'ZLAR

Orinbaeva Jupargul

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17098849>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> September 2025

Accepted: 10<sup>th</sup> September 2025

Online: 11<sup>th</sup> September 2025

### KEYWORDS

Lingvistika, eski turkiy tili, fe'l, affiks, yordamchi fe'l, sifatdosh, ravishdosh, otlashgan fe'l, buyruq-istak mayli, shart mayli, istak mayli, aniq mayl.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada Qazi Mawlik asarlarining lingvistik xususiyatlari, xususan, undagi fe'llarning grammatik shakllari tahlil qilingan. Shoir asarlarida fe'ning qo'llanish xususiyatlari misollar asosida ko'rsatilib, ularning semantik va grammatik imkoniyatlari ochib berilgan.*

Turkiy tilli xalqlar adabiy tillarining rivojlanish tarixini o'rganishda xalqning madaniy hayotida alohida o'rin tutadigan badiiy so'z ustalarining asarlarini lingvistik yo'nalishda tadqiq etish katta ahamiyatga ega. Chunki adabiy til umumxalq tilining badiiy so'z ustalari tomonidan qayta ishlangan va ijodiy yo'nalishda boyitilgan shaklidir. Shuning uchun ham adabiy tilni umumxalq so'z madaniyatining takomillashgan yuksak shakli sifatida baholash zarur. Badiiy so'z ustalari shu ijodiy jarayonni boshqarib va rivojlantirib boradi. Badiiy so'z ustalari shu ijodiy jarayonni boshqarib va rivojlantirib boradi. XX asr



boshlarida yashab adabiy ijod bilan shug'ullangan shoirlar ichida til belgilari jihatidan Qazı Mawlik Bekmuhammad o'g'lining asarlari alohida o'rin egallaydi.

Shoir asarlarining tili o'ziga zamondosh shoirlar ijodidan o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bilan ko'zga tashlanadi. Ya'ni, so'z ustasi o'z asarlarini asosan o'sha davrdagi barcha turkiy xalqlariga umumiy bo'lgan yozma adabiy an'analar namunasida yaratdi. Qazı Mawlik XX asrdagi qoraqalpoq shoirlari Sariboy, Gulmurat Qurbonali o'g'li va boshqa shoirlarning asarlaridan o'ziga xos bo'lgan so'z qo'llash xususiyatlari, badiiy bayon usullari, ayniqsa, tilining xususiyatlari bilan alohida ko'zga tashlanadi. Unda ko'pincha eski turkiy adabiy tiliga xos bo'lgan fonetik-morfologik o'ziga xosliklar ko'rinadi. Shunday ekan, shoir asarlari tilini bir necha aspektlardan tadqiq etish talab etiladi. Biz maqolada shoir asarlari tilidagi fe'lining grammatik shakllarini o'rganamiz.

Qazı Mawlik asarlari tilida qo'llanilgan fe'llar hozirgi qoraqalpoq tilidagi kabi affikslardan, shuningdek, yordamchi fe'llarning ot va fe'l shakllari bilan birikishi orqali yasaladi.

*-la//le, -lá* affiksi turkiy tildagi shuning ichida hozirgi qoraqalpoq tilidagi singari shoir asarlari tilidagi eng unumli affiks hisoblanadi. Masalan:

Izleseñ tapılmas jumla jahannı,  
Áy yaranlar, yardıñ vasfin sózlesem.

*-e//á* affiksi. Masalan:

Hár kim ıqlas eter kórmege sizni.

Qo'shma fe'llar Qazı Mawlik asarlari tilida hozirgi qoraqalpoq tilidagi kabi atov so'zlarga et, qil, bol, e yordamchi fe'llarining birikishi orqali yasaladi. Masalan:

Alardın zıyada bolǵan qushaydı.

Qılıq etip qashıñ bilán kózleriñ.

Qazı Mawlik asarlarida «e» to'liqsiz fe'lining eski o'zbek yozma adabiy tiliga xos bo'lgan shakli ham qo'llaniladi. Masalan:

Barar erdim dárwazasın ilmese.

Sen erursañ meniñ sáwgili yarım.

Juft va takror fe'llar. Masalan:

Ushıp qonǵanıña hesh sózim yoqdur.

Kesip-kesip qara baǵrım guzlasam.

Yadımnan shıqpaydur otırsam-tursam.

Qazı Mawlik asarlarida sifatdosh fe'lining quyidagi affikslari qo'llanilgan.

*-g'an//gen, -qan//ken, -g'an//kan* affikslari. Bu affikslar orqali o'tgan zomon sifatdosh yasaladi:

Gúres maydanında urǵan jáwlanlar.

Húsni-jamalını kórgen gırıptar.

Jamaln kórmegen bolur biyqarar.

Waslına jetkeniñ bolmas ármanı.

Hár bir aytqan sózi besh yırǵa azıq.

Kórgen yigitleriniñ baǵrı yaqılǵan.

Gewishine tilla mıyıq qaǵılǵan.



*-mish// -mish* affiksi sifatdosh yasovchi eski affikslardan bo'lib, u hozirgi turk, ozarbayjon, gagauz tillarida unumli qo'llaniladi. Hozirgi qoraqalpoq tilida qo'llanilmaydi, u orqali yasalgan faqat ayırım so'zlar saqlab qolingan. Ótmish, turmis, qilmis va b. Bu shakl Qazı Mawlik asarlarida unumli qo'llanilgan. Masalan:

Qılıshtayın qıyılmıstur qashlarıń.  
Hinjideyin tizilmıshdur tisleriń.  
Gúl yuzi megzelmısh alma-anara.  
Hár surma shekilmısh shamshi qamara.

*-ar// -er// -r* affiksi turkiy tillardagi eski shakllardan bo'lib, hozirgi tillarning hammasida fonetik variantlar bilan qo'llaniladi [1.118]. Bu shakl shoir asarlarida unumli qo'llaniladi. Masalan:

Ólikke jan berer hár aytqan sózi.  
Shınqobızlı qız-jawanlar sas eter.  
Yuz mıń álwan jılwa birlá naz eter.  
Neshshe qızlar ara berer ózine.

Bu affiksning eski variantlari bo'lgan *-ár// -úr// -ur, -ır// -ir, -yur// -yúr, -yır// -yir, -yár// -yer*, más shakllari shoir asarlarida unumli qo'llangan. Masalan:

Sallanıp sıypanur belini uslap.  
Tawıstek taranur qızı Shımbaydıń.  
Yuzine shalınur zulpı-zıyası.  
Bir tiyresi on tórt urıw diyárlár.

Bu shakl XV asrga tegishli yodgorliklar tilida ham uchraydi [2.162].

Qazı Mawlik asarlari tilida hol fe'llar quyidagi affikslar yordamida yasalgan. *-ıp// -ip, -p* affiksi. Bu affiks shoir asarlarida unumli qo'llangan. Masalan:

Yigitleri shıqar bedew oynatıp.  
Jem ornına aq nabattı shaynatıp.  
Kimi qashın qaqip, kózlerin súzer.  
Yigitleri surip óter yorgásın.  
Yigit kórse ımlap qashını qaqar.

Shuningdek, bu affiksning eski o'zbek tiliga yaqin bo'lgan *-ıb// -ib, -b, -ub// -úb// -b, -up// -úp, -yıp// -yib, -yub, yıp, -yip// -yúp* variantlari uchraydi. Masalan:

Árman bilán ayra túshib baraman.  
Lábli tishláb belin qushıb turganda.

*-a// -e, -á// -y* affiksi. Masalan:

Ústińe qalqadan jańa ton kiyseń.  
Jáhándi aylanıp hár jerdi kórseń.

Harakat nomi shoir asarlari tilida quyidagi affikslar yordamida yasalgan.

*-laq// -lek, -baq// -bek, -paq// -pek, -maq// -mek* affiksi qoraqalpoq tilida qadimdan mavjud va unumli qo'llanib kelmoqda. Ular shoir asarlari tilida unumli qo'llanilgan. Masalan:

Yigit bilán dáwran surmek ármanı.  
Janın qıyar ılaq shappaq qástinde.



*-ish// -ish, -sh* affiksi bilan yasalgan harakat nomi shoir asarlarida unumli qo'llangan. Bu faqat klassiklar tilida shu shaklida ham qo'llanilib, hozirgi tilda uchramaydi. Uning o'rniga feyildan otliq yasovchi *-is// -is// -s* affiksi qo'llaniladi. Masalan:

Tirnadek yurishi, toti turishi.

Búlbildek xosh hawaz bilán kúlishi.

Fe'llar 1) buyruq 2) shart 3) istak 4) aniqlik 5) maqsad mayl bo'lib bo'linadi. Har bir turning o'ziga xos bo'lgan shakllari bor.

Qazı Mawlik asarlari tilida buyruq mayilning I shaxs birlik son shakli hozirgi qoraqalpoq adabiy tilidagidek *-ayın// -eyin, -yın// -yin* affiksi orqali bildirilib, I shaxsga qaratilgan istak, chaqiriq ma'nolarini anglatib keladi. Masalan:

Yad etip táriypin áyleyin seni.

Lahza qararım yoq, kórmáyın yúrsam.

Aytayın bárini bildiń periyzat.

Qazı Mawlik asarlarida buyruq mayilning III shaxsi hozirgi tilimizdagidek *-sin// -sin* affiksi va hozirgi tilimizda qo'llanmaydigan *-sun// -sün* erinlik shakllari orqali yasalgan. Bu affikslar orqali III shaxsga qaratilgan buyruq, qaror, yechim mano'lari bildiriladi. Masalan:

Qudayım saqlasun báleden aman.

Qazı Mawlik asarlarida shart maylning hozirgi qoraqalpoq tilidagi *-sa// -se* affiksi bilan birga *-sá* varianti ham qo'llaniladi. Masalan:

Mereke-májliske barsá hár yere.

Qarǵasa qıs, jarılqasa yaz eter.

Kóziń tússe qızlarımıń kózine.

Qazı Mawlik asarlari tilida aniqlik maylidagi fe'llar uch zamonda (o'tgan, hozirgi, kelasi) ifodalanadi. Har bir mahalning o'ziga xos shakllari bor.

O'tgan zamonning *-dı// -di, -tı// -ti, -qan// -ken, -g'an// -gen* shakli. Masalan:

Úyińe ikki barıp tapmadım sizni.

Sózimniń hasılı tiri júrgeniń.

Kóńline yuz árman engen hushaydı.

Bir dilbar dúnyaǵa kelgen qushaydı.

Ya pátiwa bermey aytqan sózime.

Fe'lning o'tgan zamonning analitik shakllari to'liqsiz «e» fe'lining har xil fe'l shakllari bilan birikishidan yasaladi va har xil qo'shimcha ma'nolarga ega. Shuningdek, shoir asarlarida to'liqsiz fe'lning dastlabki to'liq shakli «er» turi ham uchraydi. Masalan:

Uluǵlar etipdur ańa bir hawas.

Maqseti ne erur ushbu sawaldıń.

Sen erursań meniń sáwgili yarım,

Shoirning asarlarida *-dur* affiksi orqali hozirgi zamon fe'li yasaladi. Masalan:

Rana durur yúziń qaddiń barksamal.

Kórgen qashǵusıdur janını kurban.

Yadımnan shıkmaydur otırsam tursam.

Ózge páriy kórinbesdur kózime.

Shuningdek, shoir asarlarida shaxs-son qo'shimchasining qisqargan shakllari orqali hozirgi kelasi zamon fe'llari yasalgan. Masalan:



Bilmádim, ol yárdín hesh arzím pitmas.

Men bilmenem, ya kúyemen, janaman.

Qazı Mawlik asarlari tilida kelasi zamon fe'llari quyidagi shakllar orqali yasaladi. -  
ar// -er// -r affiksli sifatdosh fe'llarga va ularning bo'lishsizlik shakllariga shaxs-son  
qo'shimchasining qo'shilishi orqali yasaladi. Masalan:

Yaz bolsa yigitler atlarín baqar.

At moynına lađlı-marjanlar taqar.

Jorđa jurmel miner gúllán balası.

Qash tagında uynar qara kózleri.

-ur qo'shimchasi. Masalan:

Yigitka uzatur qızı Shımbaydıń.

Aqlımını alursań rangimni barbat.

Shunday qilib, Qazı Mawlik asarlari tilida fe'lining shaxs-son, mayl, daraja, sifatdosh  
fe'l, hol fe'l, harakat nomi fe'l shakllarida hozirgi adabiy tilga nisbatan o'zgachaliklar  
ko'zga tashlanadi. Ularning eski o'zbek tiliga xos bo'lgan shakllari unumli qo'llanilgan.

### References:

1. Насыров Д., Доспанов О., Бекбергенов А., Сайтов Д. Қарақалпақ әдебияты классиклери шығармаларының тили. – Нөкис: Билим, 1995. – В.118.
2. Абдурахманов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент, 1973. – В.162
3. Э.Пахратдинов, Ҳ.Өтемуратова. XIX әсирдің, ақыры XX әсирдің басындағы қарақалпақ әдебияты тарийхы. Нөкис, «Билим», 1995..